

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILIDA ESHITISH
KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI**

Mahmudjonova Ruhshonabonu Ismoiljon qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti

Ingliz tili fakulteti Xorijiy til va adabiyoti

Yo'nalishi 2-kurs 2305-guruh talabasi.

Email: mahmudjonovaruhsiona3@gmail.com

Raxbar: Saliyeva Ziroat Zokirovna

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilida eshitishni tez, oson, qulay o'rganish usullari haqida ma'lumotlar keng yoritiladi. Mazkur maqolada boshlang'ich sinflar orasida ingliz tilida eshitish ko'nikmasini qay yo'llar bilan oshirishning samarali usullari haqida gap boradi.

Abstract. This article talks about effective and useful methods of listening to elementary school students. It includes information about learning to listen quickly, easily and conveniently with the help of different ways.

Аннотация. В данной статье подробно освещена информация о том, как быстро, легко и удобно освоить аудирование английского языка для учащихся начальной школы. В этой статье рассказывается об эффективных и полезных методах слушания учащихся начальной школы.

Kalit so'zlar: tinglab tushunish, multfim ko'rish, boshlang'ich sinf, bolalar, qiziqarli mashqlar, yangi usullar, harakatlar, o'qituvchi;

KIRISH

Keywords: listening comprehension, watching cartoons, primary class, children, interesting exercises, new methods, actions, teacher;

Ключевые слова: аудирование, просмотр мультфильмов, начальный класс, дети, интересные упражнения, новые методы, действия, учитель;

Kirish

Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish malakasi hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Jumladan ingliz, rus, xitoy, koreys, yapon, arab, turk, nemis va fransuz tillari tezlik bilan o'rganilish cho'qqisiga chiqib keldi. Bu fanlar faqatgina yuqori sinf o'quvchilarinigina emas balki boshlang'ich sinf o'quvchilarining ham hayotidan muhim o'rin olgan. Turli sohalarda chet elliklar bilan shartnomalar, kelishuvlar borligi sababli chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Eng avval, bu darslar maktabda va ta'lim muassasalarida keyin boshlang'ich sinf va yuqori sinflarda, turli o'quv markazlarda turli usullar orqali o'rgatiladi. Bunda eng muhimi bolalar chet tillarini yaxshi o'rganishga kirishishi ustozga ko'proq

bog'liq, chunki yosh bolalarda tasavvur orqali o'rganish juda kuchli bo'ladi. Ustoz bolalarning bu qobiliyatidan foydalanib ma'lum darslarni rolga kirishib, ovozlarni o'xshatib, turlicha qiziqtiruvchi sahna ko'rinishlar orqali o'rgatsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Asosan ingliz tilini o'rganishda bolalarning yoshiga e'tibor ham muhim ro'l o'ynaydi. Bosqichma-bosqich yoshlariga to'g'ri kelgan mavzular bo'yicha o'rgatish muhim. Psixologiya nazariyasida bolalarda til o'rganish kattalarga nisbatan ancha oson bo'ladi.

Bolalarda til o'rganishga bo'lgan tabiiy moyillik sababli ular tilni oson o'rganadilar. Boshlang'ich sinflarda tinglab tushunishni oshirish uchun bir nechta usullar mavjud: inglizcha multfilmlar ko'rish - bunda bolalar multfilmni animatsiyasiga qarab til o'rganadi ham o'rganayotgan narsalarini qaytarib bajarib ko'rishga ya'ni taqlid qilishga bo'lgan moyilligi sababli avval diqqat bilan eshitadi va u harakatlarni va so'zlarni qaytarib o'rganadilar. Qiziqarli mashqlar qilish orqali boshlang'ich sinflarda eshitib tushunish metodikasi kuchayadi. Biror musiqani qo'yib sinfxonada barcha o'quvchilar aytilayotgan so'zlarni eshitib ham qaytarib harakatlarini bajarishi bolalarni e'tiborini ham diqqatini kuchayishiga yordam beradi.

O'qituvchilar bolalar bilan ishlayotganda xushmuomalalik bilan oson tushuniladigan inglizcha so'zlar bilan suhbat qursa bu ham yordam beradi. Yana bir usullaridan biri boshlang'ich sinflar ko'proq nazariyadan ko'ra amaliyotda har bir narsani sinashni ko'proq xohlashadi. Shu xususiyatini hisobga olib turli xil videoroliklar orqali mavzularni tushuntirish ham foydali usullardan biri hisoblanadi.

O'quvchilar qanchalik tushunishiga va tushungan narsasini qanchalik anglashiga alohida e'tibor berish kerak. O'qituvchilar, bu holatda avval ingliz tilida o'zi og'zaki so'zlar yoki tovushlarni aytadi va bolalar diqqat qilayotganligini bilish uchun o'qituvchi aytgan so'zlarini takrorlatadi. Takrorlash orqali esa o'quvchilar ham u so'zlarni yaxshi bilishadi ham talaffuz qilish aksentlari ham rivojlanib boradi. Ko'proq boshlang'ich sinflarni diqqatini tortish uchun yashil chiroqdan foydalaniladi odatda, o'qituvchilar o'quvchilarga birorta oson tushunadigan ya'ni boshlang'ich sinf darajasiga mos bo'lgan podcast short videos beradi va uni tinglab tushunganini yozib so'ng sinf bilan uni muhokama qilishlari ham foydali bo'ladi. Podcast tinglash orqali o'quvchilarni faqatgina eshitib tushunishigina emas uni yozib so'ng gapirishlari ularni dunyoqarashini o'zgartiradi va ularga yangi ma'lumotlar berilgan bo'ladi. O'quvchilar birgalikda inglizcha kitoblarni baland ovozda o'qib, tafsilotlarni eslab qolishlari, lug'atni kontekstda muhokama qilishlari ularni eshitayotgan so'zlarini to'g'ri tushunishlariga yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda maktabdan yoki qo'shimcha darslardan tashqari holatda o'qishga bo'lgan qiziqishi yo'qoladi ular ixtiyorsiz o'yinlarga berilib ketishadi lekin buni bilgan holda maktabda yoki qo'shimcha darslarda o'qituvchilar bolalarga eshitib tushunishi uchun avval ularni gapirishiga imkoniyat yaratib berishi kerak, qachonki

bola o'ziga qulay bo'lgan sharoitda narsalarni tez o'rganadilar. Bolalar yoshiga nisbatan qancha majburlansa ham deyarli yarim soat xohlab eshitishadi keyin esa o'zlarini majburlashni boshlaydi bu esa sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. O'rgatish usullarini faqatgina ustoz emas o'quvchilar ishtirokida qilinsa bola qiziqadi ham o'z xohishi bilan o'rganadi. Bilamizki boshlang'ich sinflarda xohishlariga ko'ra qilingan ish, vaziyat, voqealar tez yodida qoladi.

Yana bir boshqa usul sifatida, bolalarni xarakteri orqali tinglab tushunishini oshirishi mumkin, masalan sinf bo'yicha o'quvchilarning hammasi ham multiklarga qiziqmaydi yoki musiqa eshitishga, bunga ko'ra avval ularning qiziqishlari so'raladi va shunga qarab vazifalar beriladi. Bo'lishi mumkin bir o'quvchi bola mashinalarga qiziqadi u siz bergan podcastlarni diqqat bilan eshitmasligi mumkin, shunda uning qiziqishiga moslab mashinaga oid videoroliklar yoki intervyular berib yanada kengroq qilib o'zingiz tushuncha bersangiz bo'ladi.

Ular sizni yaxshi tinglab tushunishyaptimi yoki yo'q bilish uchun yangi bir usul siz biror gapni ingliz tilida tez aytasiz va uni qaytarishini talab qilasiz, bu jarayon boshlang'ich sinflar uchun o'yin tariqasida o'tkazdiriladi. Yoki eshitgan narsasini qanchalik uzoq muddat eslab qolishini bilish yoki oshirish uchun, sinf bo'yicha o'quvchilardan besh yoki oltitasiga gap gapirtirasiz va bitta o'quvchi ularni hamma gapini qanchalik eslab qoldi natijasini ko'rasiz.

Xulosa sifatida shuni aytib o'tishim kerakki, tinglab tushunish har doim samarali usul bo'lib kelgan. U xoh boshlang'ich sinf yoki yuqori sinf o'quvchisi bo'lsin, xoh talaba xoh ustoz bo'lsin. Uni rivojlantirish uchun esa har kuni odatiy holda takrorlab turish kerak. Chunki chet tillari biz o'rganishimiz uchun biroz qiyinlik qiladi u o'zimizning maxsus tilimiz bo'lmaganligi sababli. Yuqoridagi aytib o'tilgan usullar orqali tajriba qilish ancha foydali bo'ladi. Chunki men o'z ukamning ustida tajriba o'tkazib yuqoridagi fikrlarni foydali ekanligiga amin bo'ldim. U mashinalarga juda qiziqadi va men unga mashinalarga oid inglizcha oson tushunadigan, darajasiga mos video qo'yib unga tushuntirdim, so'ng u bir necha haftalardan keyin mashinalar haqida inglizcha so'zlab bera oladigan bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.tanya@thehighlyeffectivetiveteacher.com
- 2.@2022 Everyday Speech.All rights reserved
- 3.Science and innovation / international scientific journal /2022/N-2/220